



**MECHANISMS FOR ENSURING GENDER EQUALITY IN
HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN: A
COMPARATIVE ANALYSIS OF THE EXPERIENCE OF THE
FIRST 30 YEARS OF INDEPENDENCE (1991-2020)**

Toliboyeva Nodira Odiljonovna

Associate Professor, Department of History of Uzbekistan,
Uzbekistan State World Languages University, PhD

E-mail: n.toliboeva@uzswlu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17605972>

ARTICLE INFO

Received: 08th November 2025

Accepted: 12th November 2025

Online: 13th November 2025

KEYWORDS

Higher education, gender equality, women, comparative analysis, 1991-2020, targeted quotas, gender parity.

ABSTRACT

The article presents a comparative analysis of mechanisms for ensuring gender equality for women in Uzbekistan's higher education system, based on the experience of the first twenty years of independence (1991-2010) and the last decade (2011-2020). The main objective of the study is to identify the achievements, as well as the challenges and contradictions, encountered in achieving gender parity in the educational sphere across different periods. Specifically, changes in university enrollment figures and the evolution of the normative legal framework were examined. The analysis provides a scientific justification for the historical basis and effectiveness of the targeted quota system introduced after 2020.

**МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В ВУЗАХ
УЗБЕКИСТАНА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА ПЕРВЫХ 30
ЛЕТ НЕЗАВИСИМОСТИ (1991-2020 ГГ.)**

Толибоева Нодира Одилжоновна

доцент кафедры истории Узбекистана, PhD,

Узбекский государственный университет мировых языков

E-mail: n.toliboeva@uzswlu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17605972>

ARTICLE INFO

Received: 08th November 2025

Accepted: 12th November 2025

Online: 13th November 2025

KEYWORDS

Высшее образование, гендерное равенство, женщины, сравнительный анализ, 1991-2020, целевые квоты, гендерное равенство.

ABSTRACT

В статье представлен сравнительный анализ механизмов обеспечения гендерного равенства для женщин в системе высшего образования Узбекистана на основе опыта первых двадцати лет независимости (1991-2010 гг.) и последнего десятилетия (2011-2020 гг.). Основная цель исследования – выявить достижения, а также проблемы и противоречия, возникшие при достижении гендерного паритета в образовательной сфере в различные периоды. В



частности, были изучены изменения в показателях приема в вузы и эволюция нормативно-правовой базы. По результатам анализа научно обоснована историческая основа и эффективность системы целевых квот, введенных после 2020 года.

**O'ZBEKISTON OTMLARIDA GENDER TENGLIGINI TA'MINLASH
MEXANIZMLARI: MUSTAQILLIKNING DASTLABKI 30 YILLIK TAJRIBASI
(1991-2020 YILLAR QIYOSIY TAHLILI)**

Toliboyeva, Nodira Odiljonovna

O'zbekiston tarixi kafedrasasi dotsenti, PhD

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

n.toliboeva@uzswlu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17605972>

ARTICLE INFO

Received: 08th November 2025

Accepted: 12th November 2025

Online: 13th November 2025

KEYWORDS

Oliy ta'lim, gender tengligi, xotin-qizlar, qiyosiy tahlil, 1991-2020, maqsadli kvotalar, gender tengligi.

ABSTRACT

Maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xotin-qizlar uchun gender tengligini ta'minlash mexanizmlari mustaqillikning dastlabki yigirma yilligi (1991-2010) va so'nggi o'n yillik (2011-2020) tajribalari asosida qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – turli davrlarda ta'lim sohasidagi gender tengligiga erishish uchun qo'llanilgan yutuqlar, shuningdek, yuzaga kelgan kamchilik va ziddiyatlarni aniqlash. Xususan, OTMlarga qabul qilish ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar, normativ-huquqiy asoslarning evolyutsiyasi o'rganilgan. Tahlil natijasida 2020-yillardan keyin joriy etilgan maqsadli kvotalar tizimi uchun tarixiy zamin va ularning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan.

I. Kirish (Introduction)

Bugungi kunda xotin-qizlar uchun sifatli oliy ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) doirasidagi 4- (Sifatli ta'lim) va 5- (Gender tengligi) maqsadlarining ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekiston uchun bu masala konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan bo'lib, ta'lim tizimidagi gender paritetiga erishish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasida so'zlagan nutqida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratib, xotin-qizlarning yetakchilik qobiliyati va kompetensiyasini rivojlantirish uchun global dasturlarni faol ishga tushirish zarurligini ta'kidladi. U YUNESKO statistika institutining ma'lumotlariga tayangan holda, jahonda ilmiy va madaniy muassasalar rahbarlarining atigi 25 foizi, ta'lim boshqaruvchilarning 30 foizi va tadqiqotchilarning 33 foizini ayollar tashkil etishini qayd



etdi [1]. Bu holat, afsuski, ayollar huquqlari sohasida hali ham tengsizlik saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston yetakchilik salohiyatiga ega xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida YUNESKO huzurida Xotin-qizlar yetakchiligi bo'yicha Akademiyani tashkil etish, shuningdek, Samarqandda Ta'lim, madaniyat va fan sohasidagi xotin-qizlarning global forumini o'tkazish tashabbusini ilgari surdi.

Mustaqillikning dastlabki yigirma yilligi (1991-2010) mobaynida O'zbekiston ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, milliy kadrlar tayyorlashga o'tish kabi murakkab jarayonlarni boshdan kechirdi. Bu davrda ayollarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bevosita bog'liq bo'lgan o'zgaruvchan dinamikaga ega edi. So'nggi o'n yillik (2011-2020) esa, ayniqsa 2017-yildan boshlab joriy etilgan Harakatlar strategiyasi va Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi doirasida, ayollarni oliy ta'limga jalb etish va ularning ilmiy hamda rahbarlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar bilan ajralib turdi. Jumladan, qizlar uchun oliy o'quv yurtlarida maqsadli kvotalar belgilandi, "Ayollar daftari" asosida ijtimoiy himoya mexanizmlari kuchaytirildi, shuningdek, pedagogik va texnik yo'nalishlarda qizlar uchun grantlar soni oshirildi.

Bunday siyosatning samaradorligi yillar kesimida oliy ta'limda o'qiyotgan qizlar sonidagi o'sish orqali ko'rinadi: 2003-yilda 98 764, 2013-yilda 96 636, va 2020-yilda 260 026 nafar qiz oliy ta'limda tahsil olgan[2]. Ushbu raqamlar, avvalgi 2013-yilgacha biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda ikki baravardan ortiq o'sish tendensiyasini ko'rsatadi. Bu holat O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash mexanizmlarining evolyutsiyasi va davlat siyosatining samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

O'zbekistonda gender masalalari tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy nuqtai nazardan keng o'rganilgan. Shuningdek, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi va ta'lim tizimidagi ishtiroki bo'yicha chuqur tadqiqotlar mavjud. Ammo, Mustaqillikning dastlabki 30 yillik tajribasini (1991-2020) o'z ichiga olgan, ikki davr (1991-2010 va 2011-2020) yutuqlari va kamchiliklarini tarixiy-qiyosiy va statistik usullar asosida tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar hali yetarli emas. Shu bois, mazkur maqola nafaqat O'zbekiston oliy ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash mexanizmlarini batafsil ko'rib chiqadi, balki mavjud siyosiy va ijtimoiy chora-tadbirlarning samaradorligini ham aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning gender siyosati strategiyasini rivojlantirish, xotin-qizlarni oliy ta'limga keng jalb etish va xalqaro standartlarga muvofiq ta'lim tizimini shakllantirishga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi:

Mustaqillikning 1991-2020 yillari davrida O'zbekiston oliy ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish, hamda ushbu tajriba asosida kelgusida gender paritetiga erishish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi:

Maqolada asosiy ilmiy usul sifatida Tarixiy-qiyosiy tahlil (ikki davrni solishtirish), Sistemali yondashuv va Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot manbalari O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, rasmiy statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlardan iborat.



II. Natijalar (Results)

Mustaqillikning dastlabki yigirma yilligi (1991-2010) davrida O'zbekiston oliy ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, milliy kadrlarni tayyorlash jarayoni murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda amalga oshdi. Shu davr mobaynida ayollarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi o'zgaruvchan dinamikaga ega bo'lib, bakalavriatga qabul qilingan qizlar soni nisbatan past darajada qolgan: 2003-yilda 98 764 nafar qiz oliy ta'limga qabul qilingan bo'lsa, 2013-yilda bu raqam 96 636 ga tushganligi qayd etiladi. Bu ko'rsatkichlar, ayniqsa, qishloq hududlaridagi qizlar orasida oliy ta'limga kirish imkoniyati cheklanganligini ko'rsatadi, shuningdek, gender tengligi nuqtai nazaridan mavjud to'siqlarni ochib beradi.

2011-2020-yillar davrida esa, ayniqsa 2017-yildan boshlab joriy etilgan Harakatlar strategiyasi [3] va 2019-yil 8-oktabrda tasdiqlangan Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi [4] doirasida qizlarni oliy ta'limga jalb qilish, ularning ilmiy va rahbarlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks tizim joriy etildi. Mazkur chora-tadbirlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

Maqsadli kvotalar – qizlar uchun bakalavriat va magistratura yo'nalishlarida kvotalar belgilab, ularning oliy ta'limga kirish imkoniyati kengaytirildi.

Ijtimoiy himoya mexanizmlari – “Ayollar daftari” tizimi orqali qizlar moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlandi, jumladan, stipendiyalar, yashash joyi va boshqa yordamlar ko'zda tutildi.

Grantlar va ilmiy loyihalar – pedagogik va texnik yo'nalishlarda qizlar uchun grantlar soni oshirildi, ularning ilmiy faoliyatga jalb qilinishi rag'batlantirildi.

Natijada 2020-yilda bakalavriatga qabul qilingan qizlar sonining 30 foizdan ortganligi va bu ko'rsatkich oldingi davr bilan solishtirganda sezilarli darajada ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xotin-qizlar nafaqat qamrov, balki turli yo'nalishlarda o'qish imkoniyatlarini ham kengaytirib, rahbarlik va ilmiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarda faol ishtirok etdi.

Shu bilan birga, mavjud dissertatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar yetarli emasligi sababli, oliy ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash va xotin-qizlarning rahbarlik salohiyatini rivojlantirish borasidagi bo'shliqni aniqlash imkoniyati cheklangan. Bu esa ayniqsa, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida gender siyosatini yanada rivojlantirish va xalqaro standartlarga muvofiq chora-tadbirlar joriy etish zaruratini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan joriy etilgan strategiyalar va konsepsiyalar samarali bo'lib, ular nafaqat qizlarning oliy ta'limga kirishini oshirish, balki ularni ilmiy va rahbarlik salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, gender tengligi sohasidagi mavjud bo'shliq va ilmiy tadqiqotlarning yetishmasligi kelajakda yanada keng qamrovli va tizimli tadqiqotlarni talab qiladi.

III. Tahlil (Analysis)

Dastlabki davr (1991-2010) muammolari va sabablari O'zbekistonning mustaqillikka erishgan dastlabki yigirma yilligida ta'lim siyosati global gender paritetiga erishishdan ko'ra, milliy kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimining huquqiy asosini yaratishga qaratilgan edi. Shu sababli, ayollar ta'limi bo'yicha maqsadli, moliyaviy qo'llab-quvvatlanadigan dasturlar yetarli darajada mavjud emas edi. Sovet davrining so'nggi



yillarida ham qizlarning ta'limga qamrovi bo'yicha hududiy nomutanosiblik mavjud bo'lib, 90-yillarda iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli bu muammolar yanada chuqurlashgan [5]. Natijada, ayollarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi faolligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi institutsional to'siqlar yuzaga keldi.

2017-yildan keyin joriy qilingan islohotlar va ayniqsa 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi" Qonun [6] vaziyatni tubdan o'zgartirdi. Gender tengligiga erishishdagi asosiy burilish nuqtasi 2020-yildan joriy etilgan maqsadli kvotalar tizimidir. Bu mexanizmlar avvalgi davrdagi institutsional to'siqlarni bartaraf etdi va qizlarning oliy ta'limga kirish imkoniyatini sezilarli darajada oshirdi. Natijada, 2020-yilda bakalavriatga qabul qilingan qizlar soni 260 026 nafarga yetdi [2], ya'ni 2013-yilgacha kuzatilgan pasayishdan keyin ikki baravardan ortiq o'sish qayd etildi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolligi ham oshdi.

Shunga qaramay, 2020-yilgacha bo'lgan davr tahlili ta'lim yo'nalishlari bo'yicha nomutanosiblik saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Xotin-qizlar asosan gumanitar, pedagogika va tibbiyot sohalarida ustunlikni saqlab qolgan bo'lsa, texnika, muhandislik va axborot texnologiyalari (STEM) sohalarida ularning ulushi hali ham past darajada ekanligi kuzatiladi. Bu nomutanosiblik 2020-yildan keyin joriy etilgan qo'shimcha kvotalar va grantlar orqali bartaraf etilishi kerak bo'lgan asosiy masaladir.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, 2011–2020-yillarda joriy etilgan strategik chora-tadbirlar samarali bo'lib, ular nafaqat qizlarning oliy ta'limga kirishini oshirdi, balki ularning ilmiy va rahbarlik salohiyatini rivojlantirishga ham xizmat qildi. Shu bilan birga, mavjud nomutanosiblik va yetarli ilmiy tadqiqotlarning yo'qligi kelajakda gender tengligini yanada mustahkamlash va ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish uchun ilmiy asos yaratishni talab qiladi.

IV. Xulosa va Takliflar (Discussion/Conclusion)

Mustaqillikning dastlabki 30 yillik tajribasining qiyosiy tahlili (1991-2020) O'zbekiston oliy ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash mexanizmlarining evolyutsiyasini ko'rsatadi. Dastlabki davr (1991-2010) asosan huquqiy va institutsional poydevor yaratishga qaratilgan bo'lib, ammo moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari yetishmasligi tufayli ayollarning qamrov darajasi pasaygan. So'nggi o'n yillikda (2011-2020) qabul qilingan maqsadli choralar orqali ushbu nomutanosiblik bartaraf etildi. Tahlil natijalari bu mexanizmlar nafaqat qamrovni oshirish, balki qabul qilinayotgan ayol kadrlarning sifatini ham yaxshilaganini isbotlaydi.

Munozara natijalari shuni ko'rsatadiki, gender paritetiga erishishdagi eng katta to'siq hali ham tarmoqlar bo'yicha nomutanosiblik bo'lib qolmoqda. Agar gumanitar va pedagogik sohalarda ayollar ustunlik qilsa, fundamental fanlar, muhandislik va IT sohalari (STEM) tarixiy jihatdan erkaklar yetakchi bo'lib qolmoqda [7]. 2020-yillardan keyin joriy qilingan Gender tengligi to'g'risidagi qonun bu to'siqlarni bartaraf etish uchun nazariy asos yaratdi, ammo amalda uzoq muddatli dasturlar zarur. Shuningdek, 1991-2020 yillar oralig'ida OTMlarda ayol professor-o'qituvchilarning rahbarlik lavozimlaridagi ulushi pastligi [8] ham, ayol talabalar uchun yetarli darajada ilhomlantiruvchi namuna (rol model) bo'lishiga to'sqinlik qilgan.



Tadqiqot natijalari va qiyosiy tahlillar asosida, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimida gender tengligini yanada mustahkamlash uchun quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

STEM yo'nalishlariga qizlarni tayyorlashning uzluksiz tizimini yaratish yuzasidan 2020-yildan keyingi maqsadli kvotalar bilan birga, maktabdan boshlab texnika va tabiiy fanlarga qizlarni jalb qiluvchi maxsus o'quv markazlari va pre-universitet tayyorlov kurslarini joriy etilganini qayd etish mumkin. Bu, faqatgina OTMga kirishda emas, balki kasbiy yo'nalish tanlashda ham teng imkoniyat yaratadi [9].

OTMlarda ayol professor-o'qituvchilar va ma'muriy xodimlarni rahbarlik lavozimlariga ko'tarish uchun mentorlik (ustoz-shogird) dasturlarini majburiy joriy etish. Bu choralarning amalga oshirilishi xotin-qizlarning ilmiy salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqsadli grant kvotalarini taqsimlashda har bir viloyatdagi qizlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi va mehnat bozorining ehtiyoji asosida differensial yondashuv qo'llash masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. 2025-yil 30-oktabr. // <https://president.uz/uz/lists/view/8610>
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Oliy ta'lim tashkilotlarida bakalavriat bosqichiga qabul qilingan qizlar soni, 2003–2020 yillar // https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_699.pdf
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/3107036> (Murojaat sanasi: 05.11.2025).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4545884> (Murojaat sanasi: 05.11.2025).
5. Djurayeva, N. (2025). Размышления о "решении" вопроса отношения к женщинам в советский период. // Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 5(10), 227–242.
6. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabr "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.// lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi Qarori. "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-997-sonli Qarori. URL: <https://lex.uz/docs/-4097073> (Murojaat sanasi: 05.11.2025).
8. Toliboyeva, N.O. O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi faoliyati (1991–2019 yy.): Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2020. – B. 24.



9. Toliboyeva N.O. The solution of question related to learning and employment of women in Uzbekistan. International Conference on Generating knowledge through research. Indonesia. 2019. – Pp.16-21.